

**MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTIDA MODERNNING O'RNI*****Mahmudjonova E'zoza****Shahrисабз davlat pedagogika instituti**"O'zbek tili va adabiyoti "kafedrasi magistranti**maxmudjonovezoza@gmail.com**+998 90 910 09 29***ANNOTATSIYA**

Ushbu tezisda Mustaqillik davri adabiyotining o'ziga xos jihatlari, modernizmning ilk kurtaklari, ushbu yo'nalishda salmoqli ijod qilgan o'zbek ijodkorlari, modernizmning shakllanish bosqichlari, Yevropa adabiyotining ta'siri singari masalalar yoritib berilgan va keng doirada mushohada qilingan.

**Kalit so'z:**Modernizm, dekadans, avangardizm, madaniy inqilob, zamonaviy asarlar

**ABSTRACT**

This thesis highlights issues such as the specific aspects of the literature of the independence period ,Uzbek writers who worked in this direction ,the stages of the formation of modernism and the influence of European literature

**Key words:**modernism,decadence,avant-garde,cultural revolution.

Modernizm adabiy harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, G'arb jamiyatida yuz bergen ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida yuzaga kelgan. Bu davr industrializatsiya, urbanizatsiya, va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, jahon urushlari, inqiloblar va siyosiy tangliklar jamiyatda beqarorlikni kuchaytirgan, inson ruhiyatida tushkunlik va izolyatsiyani keltirib chiqargan. Ushbu jarayonlar adabiyotda yangi shakllar, tamoyillar va yondashuvlarning paydo bo'lishiga turtki berdi. XIX–XX asrlar chegarasida inson dunyoqarashidagi o'zgarishlar hamda zamonaviy falsafiy qarashlarning inson va dunyo rivojlanishiga ta'siri ijodiy yo'nalishlarning ustuvorliklarida ham o'zgarishlarga olib keldi. L.P. Andreyev, V.N. Bogoslovskiy, N.P. Mixalskaya, E.Ya. Dombrovskaya va V.V. Ivasheva kabi ko'plab yozuvchi va tanqidchilar modernizmni tadqiq qilib, ushbu yo'nalishning yangi janr va usullarini tahlil qilishgan, uning asosiy tamoyillarini ochib bergan. O'zbek modernizmining asosiy bosqichlari

1. Sovet davri bosqichlari

Sovet davrida modernizm ochiqchasiga qabul qilinmagan bo'lsa-da, ayrim adiblar o'z asarlarida ramz va metaforik tasvirlar orqali modernistik g'oyalarni ilgari

surishdi. Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon singari yozuvchilarning ayrim asarlarida modernizm unsurlari seziladi.

## 2. Mustaqillikdan keyingi davr:

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, adabiyot erkinlikka erishdi. Bu davrda yozuvchilar modernizmning turli ko‘rinishlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Rustam Musurmon, Usmon Azim, Halima Ahmedova kabi shoir va yozuvchilarning asarlarida modernizm unsurlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Usmon Azimning she’rlari va nasriy asarlarida ekzistensializm va zamonaviy badiiy tamoyillar chuqur ifoda etilgan. Uning ijodi orqali o‘zbek adabiyoti yangi mazmun va shakllar bilan boyidi.

Halima Ahmedova modernistik hikoyalari bilan o‘zbek adabiyotida yangi uslubning shakllanishiga katta hissa qo‘shti. Uning asarlarida ramziy va falsafiy mazmun yetakchi o‘rinni egallaydi.

Modernizm murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uning bir necha xronologik bosqichlari ajratib ko‘rsatiladi. Ulardan birinchisi, eng dastlabkisi, «dekadans» yoki erta modernizm deb ataladi va XIX asrning oxirgi uchdan bir qismini qamrab oladi. Dekadans (fr. decadence – tanazzul) – bu an’anaviy realist estetikadan chekinishni aks ettiruvchi ijodiy hodisalarning umumiy atamasi bo‘lib, u, avvalo, jamiyatdagi o’sha davr inqirozi sabab bo‘lgan umumiy pessimistik kayfiyat bilan bog‘liq. «Dekadans» tushunchasi XIX asrning 80-yillarda Parijda «Dekadans» jurnali nashr etilgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Bu atama dastlab adabiy kurashda qo‘llanilgan va 80-yollar yozuvchilari, jumladan, simvolistlarga yaqin bo‘lgan ijodkorlarni tasvirlash uchun ishlatilgan. Modernizmga ta’sir qilgan ijtimoiy va siyosiy omillar

Modernizmni shakllantirgan asosiy ijtimoiy va siyosiy omillar quyidagilardan iborat:

### 1. Industrializatsiya va urbanizatsiya:

XIX asr oxiridagi industrial revolyutsiya shaharlar va fabrika ishlab chiqarishining kengayishiga olib keldi. Bu jarayon insonlarning tabiiy hayotidan ajralishi, ruhiy izolyatsiyaga tushishi va yolg‘izlik hissining kuchayishiga sabab bo‘ldi. Modernist yozuvchilar bu o‘zgarishlarni o‘z asarlarida aks ettirishga harakat qildilar.

2. Juhon urushlari: Birinchi va Ikkinci jahon urushlari insoniyat tarixidagi ulkan fojialar hisoblanadi. Urushlar insoniy qadriyatlarning buzilishi, xalqlarning vayronaga aylanishi, va texnologiyalarning shafqatsiz quroqga aylanishi orqali insoniyatda chuqur ichki ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Modernist adabiyot inson psixologiyasidagi ushbu o‘zgarishlarni yoritishga qaratilgan.

### 3. Falsafiy o‘zgarishlar:

Fridrix Nitsshe, Zigmund Freyd va Anri Bergson kabi falsafachilar inson ongingin murakkabligi, sub’ektivlik va irratsionalizm g‘oyalarini ilgari surishdi. Ularning asarlari modernizm adabiyotining falsafiy asoslarini tashkil etdi. Freydning

psixoanaliz nazariyasi insonning ichki ziddiyatlari va ongsiz jarayonlarni o'rganishga katta ta'sir ko'rsatdi.

#### 4. Madaniy inqiloblar va san'atdagi yangi oqimlar:

San'atda impressionizm, kubizm, futurizm, va ekspressionizm kabi yangi oqimlar paydo bo'ldi. Bu harakatlar adabiyotda ham yangi yondashuvlarni keltirib

chiqardi, jumladan tasviriylik, o'yin va eksperimentallik kuchayib bordi. Modernistlar an'anaviy hikoya tuzilmasidan voz kechib, ong oqimi texnikasini qo'llay boshladilar.

Modernistik asarlarda asosiy e'tibor kishining ichki olamiga qaratiladi. Ruhiyat asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. Biz quyida ushbu yo'nalishda yozilgan asarlarni ko'rib chiqamiz.

Inson ruhiy olamiga yangicha qarab o'zgacha badiiy talqin etish jarayonlari M. Muhammad Do'st, O. Otaxonov, X. Do'stmuxammad, T. Murod ijodida ancha ilgari boshlandi. Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro, Ulug'bek Hamdam kabi yosh nosirlar ijodida bu tamoyil davom etdi va yetakchi uslubga aylanadi.

N. Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" [4. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi, 243-bet] to'plamiga kirgan hikoya qissalar biz yuqorida eslatib o'tgan yo'nalishning orginal namunalari bo'ldi. Bu asarlar badiiy adabiyotda yangicha tafkkur yuritish inson iztiroblarini tasvirlashi bilan xarakterlanadi.

Nodir Normatov "Bir kuni chumoli bo'lib...", "Ko'ktoshlar", "Oytosh" kabi fusunkor hikoyalarida talmeh yo'sinida ishoratlar qilib o'tadiki, o'quvchi bularni Ko'hitang asrorangiz tabiatining nozik hodisalari kabi o'pkasi to'lib qabul qiladi va juda ta'sirlanadi. Ushbu hikoyalarda modernistik ruh sezilib turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, modernizm yo'nalishida yozilgan asarlar insonni tushunish, uni his etish, uni yangicha kashf qilishni maqsad qiladi. Unda psixologik yondashuv yetakchilik qiladi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida shu kabi tendensiyalar ustuvorlik qilgan holda adabiy merosimiz boyib bormoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. - T.: Yangi asr avlod, 2004.
2. Rasulov A. Ilmi g'aribani qumsab... - T.: Ma'naviyat, 1998, 27-bet
3. Google "wikipedia"
4. Ozod Sharafiddinov .Maqolalar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2002 yil 23-24-sonidan olindi
5. Namazova M.U.XX-XXI ASR ADABIYOTI VA ZAMONAVIY USLUBLAR